

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti****SHARQ MASH'ALI**

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI

**ADABIYOT XALQLARNI YAQINLASHTIRADI  
(O'ZBEK-ARAB ADABIY ALOQALARGA OID)*****Ra'no Xodjayeva****O'qituvchi, filologiya fanlari doktori,**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** Adabiy aloqalar, Islom tamadduni, Misr mamluklari, chig'atoy tili, qomusiy asarlar, O'zbekiston mavzusi, Toshkent ruhi, Toshkent madhiyasi.

**Annotatsiya:** Azaldan diyoramizni arab olami bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar Buyuk Ipak yo'li orqali bog'lab keldi. Bu aloqalar mushtarak Islom tamadduni hududida yanada rivoj topdi va turli bosqichlardan o'tdi. Maqolada ushbu bosqichlarning o'tmishdagi ayrim yorqin sahifalariga, masalan Misrdagi turkiy mamluklar davridagi ravnaq topgan madaniy-adabiy aloqalarga nazar tashlanadi. Shuningdek, maqolada yangi davrda, XX asr boshidan rivojlangan adabiy aloqalarga to'xtalib, bu aloqalar 60-yillarda arab mamlakatlari mustaqillikka erishgandan so'ng yangi pog'onaga chiqqanligi ta'kidlanadi. Arab adiblari ijodida O'zbekiston mavzusi mustahkam o'rin egallaydi va turli adabiy janrlar-ocherklar, she'rlar, hatto romanlarda o'z ifodasini topadi. Hozirgi davrda O'zbekiston Misr, Birlashgan Arab Amirliklari, Ummon, Qatar va boshqa arab davlatlari bilan ko'pqirrali hamkorlik o'rnatotgan bir paytda o'zbek-arab madaniy-adabiy aloqalar rivoji uchun yangi ufqlar ochildi va imkoniyatlar kengaydi.

**LITERATURE BRINGS PEOPLE CLOSER  
(CONCERNING UZBEK-ARAB LITERARY RELATIONS)*****Rana Khodjayeva****Teacher, doctor of philology,**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

**Key words:** literary relations, Islamic civilization,

**Abstract:** Since ancient times, our region has been connected with the Arab world through the Great Silk Road by economic and cultural relations. These ties were further

Mamluk Egypt, Chagatai language, encyclopedic works, the theme of Uzbekistan, the spirit of Tashkent, poems about Tashkent.

strengthened and further developed within the framework of a single Muslim civilization at its various stages and manifestations. The article discusses some periods of cultural and literary relations in the past, such as during the reign of the Turkic Mamluks in Egypt. Also, in the article, the author examines literary relations in the new period at the beginning of the twentieth century, and especially in the 60s, when these connections rose to a new level after the Arab countries entered the path of independent development. The theme of Uzbekistan has firmly established itself in the works of Arab authors in various genres - essays, poems, and even novels. At present, when Uzbekistan establishes relations of multilateral cooperation with Egypt, the United Arab Emirates, Qatar, Oman and other Arab countries, new horizons of Uzbek-Arab cultural and literary relationships are opening and their possibilities are expanding.

### ЛИТЕРАТУРА ОБЪЕДИНЯЕТ ЛЮДЕЙ БЛИЖЕ (ПО УЗБЕКСКО-АРАБСКИМ ЛИТЕРАТУРНЫМ СВЯЗЯМ)

*Раъно Ходжаева*

*Преподаватель, доктор филологических наук,*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

#### О СТАТЬЕ

##### **Ключевые слова:**

системный подход,  
специальная система  
терминологии, строительное  
поле, организационные  
правила.

##### **Аннотация:**

Появление комплексной системы подготовки нового поколения глобально конкурентоспособных педагогов требует дальнейшего совершенствования подготовки высококвалифицированных педагогов, досконально освоивших зарубежный спрос.

В данном исследовании большое значение имеет лексикологический анализ терминов в области построения в английском языке и овладение методикой обучения. На основе сравнения образовательных систем Японии и Худжанда в области строительства были выявлены преимущества и недостатки системы обучения студентов нефилологического образования зарубежным строительным терминам и ряду педагогических подходов.

#### **KIRISH**

Qadimgi davrlardan Buyuk Ipak yo‘li arab olamini Markaziy Osiyo va u orqali Xitoy va Uzoq Sharqni iqtisodiy va madaniy aloqalar bilan bog‘lagan. O‘rta asrlarda esa, mushtarak musulmon tamadduni hududida bu aloqalar yanada kuchayib, rivojlandi. Musulmon dunyosining bir qismida ro‘y bergan biror muhim voqea, zabardast ilmiy va adabiy ijod boshqa bir qismida sezilmay qolmas edi va o‘z in‘ikosini topardi. Bu holat Misr va Suriya tarixi va madaniyati

sahifalarida alohida o'rin egallagan turkiy elatlardan chiqqan Mamluk sultonlari davriga ham taalluqlidir (XIII-XV asrlar) [2;6].

Bag'doddagi Abbosiylar xalifasi mo'g'ullar zarbasi natijasida yemirilgandan so'ng, Misr musulmon dunyosining madaniy markaziga aylandi. Bu yerga turli islom mintaqalaridan kelgan adiblar va olimlar tomonidan o'ziga xos adabiy-madaniy muhit yaratildi: ilmiy tadqiqotlar yozildi, an'anaviy saroy she'riyati o'rniga nazmda yangi janrlar va uslublar paydo bo'ldi, "adab" janrida ilmiy – adabiy ommabop risolalar yaratildi. Madaniy hayot rivojida turkiy elatlardan chiqqan adiblar faol ishtirok etishdi. Jumladan, Sayfi Saroyi boshchiligida salmoqli turkiyzabon badiiy ijod shakllandi. U Misrda yaratgan "Guliston bit-turkiy" asari Sa'diyning "Guliston" asarining bevosita forsiydan tarjimai bo'lmasdan, balki erkin bayonidir. Saroyi tarjimaga ijodiy yondoshgan, matnga o'zining bir nechta chig'atoy (eski o'zbek tilida) yozilgan she'rlarini (100 baytdan ortiq) kiritgan, ularda o'z taxallusini saqlab qolgan. Shuningdek, zamondoshlaridan 7 turkiyzabon shoirlar - Mavlono Qozi Muxsin, Mavlono Ishoq Xorazmiy, Mavlono Imod Mavloniy, Ahmad Xo'ja as-Saroyi (Urganchiy), al-Xorazmiy, Abdul-Majid, Tug'li Xo'ja Xasan o'g'li g'azallarini ham qo'shgan.

Xorazmiy nisbasi bilan keltirilgan shoir mashhur "Muhabbatnoma"ning muallifidir. Shoirning to'liq ismi hanuzgacha ma'lum emas. Al-Xorazmiy "Muhabbatnoma"ni Misrda yozib tugatgan. Bu to'g'risida shoirning o'zi shunday deydi:

*Kitobat boshladim, anjoma yetgay.*

*"Muhabbatnoma" Misru Shoma yetgay [7; 187].*

Mamluklar saltanati davrida ko'p ilmiy asarlar yozildi, birinchi musulmon qomuslari yaratildi. Qomuslarning mualliflari An-Nuvayriy (1279-1332), al-Umariy (1301-1348), al-Qalqashqandiy (1355-1418) o'z asarlarida hozirgi O'zbekiston hududida joylashgan mintaqaga to'g'risida ma'lumotlar qoldirishgan. Masalan, XIV asrda Misrda yashagan olim va adib Shahobiddin Abu-l-Abbos al-Qalqashqandiy tuzgan 12 tomlik "Subhu-l- a'sha fi sin'ati-l-insha" ("Insho yozish san'atida ko'zi ojizga yorug'lik") nomli qomus Markaziy Osiyo mintaqasi to'g'risida ko'p ma'lumotlarni qamrab olgan: iqlimi, jo'g'rofiyasi, xalqlari, xo'jaligi, hokimlari, odatlari, hayot tarzi va h. Xususan unda Amir Temurning Mamluk sultonlaridan biri Barquq (1382-1399yy. hukmdorlik qilgan) bilan olib borgan yozishmalari mavjud [1: 36]. Bu qomusning 1915-1920 yy. nashr qilingan nusxasi Toshkentdagi O'zR FA kutubxonasiining nodir kitoblar fondida saqlanib kelinmoqda.

Umuman, Amir Temur nomi va faoliyati arab dunyosida tarixiy hujjatlar, qo'lyozmalar, solnomalar va badiiy asarlar orqali keng tanilgan. Oldin Amir Temur shaxsiga berilgan baholar turlicha ekanligini ham tan olish kerak. Ammo, mamnuniyat bilan shuni qayd etish lozim-ki, oxirgi chorak yillarda Misr tadqiqotchilari Amir Temur shaxsiyati atrofidagi noaniqlik va uydirmalarni bartaraf etib, uning haqiqiy siymosini-buyuk davlat arbobi va ulug' sarkarda, islohotchi va ijodkor sifatida keng jamoatchilikka xolisona yetkazishga harakat qilmoqdalar. Bu borada Qohiradagi Ayn-Shams universiteti Adabiyotlar fakulteti olimlarining hissasi ayniqsa salmoqlidir. 1999-2006 yillarda ushbu maqola muallifi ular tomonidan uyushtirilgan Amir Temur va Temuriylar davriga bag'ishlangan anjumanlarda ishtirok etib, ma'ruzalar, ilmiy tadqiqotlar va badiiy asarlar bilan tanishdi, ularning qadimgi qo'lyozmalarga asoslangan holda Amir Temur va Temuriylar davrini ob'ektiv yoritganiga guvoh bo'ldi. Misr adiblari Ahmad Mitvaliy, Shirin Abdunaim Hasanayn, Odil Abd al-Munim Ali, al-Xulliy va boshqalar o'z asarlarida Temur va temuriylar hukmronligi davrida madaniy-ma'naviy yuksalish, bunyodkorlik va boshqaruv ishlari, qonun-qoidalar, o'rnatilgan tartiblar, ilm-fan va tasavvuf rivojiga alohida e'tibor berib, shu davrning buyuk siymolari Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamolliddin Koshifiy, Kamoliddin Behzodlarning faoliyatini yoritganlar. Temuriylar davri madaniyatining o'ziga xos ko'p qirrali va keng qamrovli ekanligini ko'rsatib, bu yerda uch til – arab, fors va turkiy (chig'atoy) tillari barobar kamol topganini qayd etib o'tishadi. Misr adiblarining ta'kidlashicha, bu davrning yana bir xususiyati-boshqa musulmon mamlakatlarida uncha tarqalmagan tasviriy san'at rivojidir. Umuman olganda tasviriy san'at qaysi shaharda

rivojlanganidan qat'iy nazar Samarqand, Buxoro, Tabriz, Hirot yoki Sherozdami, shaklan xilma xil bo'lsa-da, bir maktab an'anasiga tayangan ijodiy yaxlitlik bilan ajralib turgani sabab, arab dunyosida "Temuriylar maktabi" nomini oldi [3: 26-30].

Arab badiiy adabiyotida ham O'zbekiston mavzusi alohida ahamiyatli o'rin tutadi. Dastlab, mintaqa tarixi, bu yerda yashovchi xalqlar taqdiri XIX asr oxiri XX asr boshida paydo bo'lgan ma'rifiy tarixiy romanlarda o'z ifodasini topdi. Jirji Zaydonning "Farg'ona kelin", "Shajarat ad-Durr", so'ng Muhammad al-Aryanning "Yo, islom", "Shajarat ad-Durr", Muhammad Abu-l-Hadidning "Jo'ha alamlari" kabi tarixiy romanlarida mamluklar davlatining vujudga kelishi, mo'g'ullarning musulmon olamini bosib olishi va Misr hududlariga yetib borib, Qutuz boshliq xorazmliklardan tashkil bo'lgan lashkardan mag'lubiyatga uchrashi tasvirlangan. Barcha voqeahodisalarda Xorazm, Dashti Qipchoqdan chiqqan o'g'uz va qipchoq qabilalariga mansub bo'lgan mamluklar faol ishtirok etadi [5:9]. Bu romanlar o'rta asrning mashhur tarixchilari Taqidin Ahmad bin Ali Maqriziyning "As-Suluq lima'rifati duvali-l-muluk" ("Podshohliklar bilan tanishish yo'llari") va Ibn Iyas Abul Barakatning "Badi'i az-zuxur fi vaqa'i-d-duxur" ("Asrlar voqealaridan noyob gullar") tarixiy solnomalari asosida yozilgan bo'lib, ular zamonaviy ta'lim vazirligi tomonidan maktabdagi yuqori sinf o'quvchilariga o'quv kitoblari sifatida tavsiya qilingan. "Shajarat ad-Durr" romanining qahramoni tarixda iz qoldirgan ayol. U oddiy joriyadan malika darajasiga ko'tarilgan, hamda birinchi mamluklar sultoni sifatida tanilib, Misr taxtida bir necha oy rasmiy hukm surgan, so'ng haram ichidan eri sulton Oybek Muizz at-Turkmoniy bilan mamlakat siyosatini boshqargan [1250- 1257]. Tarixiy solnomalar mualliflari al-Maqriziy va Iyaslar Shajarat ad-Durr yoshligida Muhammad Xorazmshohning saroyida tarbiya olgan deb taxmin qiladilar [2:131- 133].

Atoqli arab yozuvchisi Jirji Zaydonning "Farg'ona kelin" tarixiy romaniga to'xtaladigan bo'lsak, ma'lumki, mashhur o'zbek romannavisi Abdulla Qoliriy, o'zining aytishicha, bu romandan ilhomlanib, ajoyib "O'tgan kunlar" romanini yozgan. Abdulla Qodiriy Jirji Zaydonni o'z ustoz deb hisoblagan. Ammo arab yozuvchisi romanida voqeahodisalar asosan uchlik-oshiq, ma'shuqa va yovuz raqib munosabatlariga qurilib, tarixiy voqealar ularga shunchaki fon tashkil qilsa, o'zbek yozuvchisining romanida qahramonlar taqdiri davrning siyosiy-ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog'lanadi, ularning obrazlari g'oyaviy-estetik va psixologik jihatdan chuqurroq va to'laqonli talqin etilgan.

XX asr ikkinchi yarmida ham zaminimizga qadam qo'ygan arab adiblari mehmondo'st, mehnatsevar xalqimiz sahovatidan, yutuqlaridan va umumbashariy tamadduniga qo'shgan yuksak madaniy-ma'naviy merosidan ta'sirlanib, diyorimiz chiroyidan ilhomlanib, u haqida hikoyalar, ocherklar, she'rlar bitishgan va hatto romanlar ham yaratishdi.

1958-yilda Toshkentda Osiyo va Afrika mamlakatlari yozuvchilarining birinchi anjumani bo'lib o'tdi. O'sha paytda "Toshkent ruhi" degan shior paydo bo'ldi, u o'zida insonparvarlik, birodarlik, bag'rikenglik, tenglik ma'nolarini mujassamlashtirgan edi. Toshkentda 60-yillardan boshlab ketma-ket o'tkazilgan anjumanlar "Toshkent ruhi" shiori ostida madaniyat va adabiyot vakillarini birlashtirib bordi. Arab davlatlaridan Yusuf as-Sibo'iy, Abulloh at-Toyyib, Abdurahmon al-Hamisiy, Abdurahmon ash-Sharqoviy, Yusuf Idris, Muin Bsisu, Mahmud Darvesh va boshqa atoqli adiblar qatnashdilar. Ularning ocherklarida Toshkent, o'zbek xalqi to'g'risida juda jozibali so'zlar bor- "Kun tug'ilgan sari yangidan tug'iladi bu shahar", yoki "O'zbekistonda uzum va paxta pishib yetilganda to'ylar qilishadi. Nazarimda o'zbek bolalari paxtadan ko'ylak kiyib qo'lida bir shingil uzum ko'tarib, yorug' dunyoga kelganday" (12:34).

Misrlik shoir al-Hamisiy ta'rifi bilan aytdanda, O'zbekiston va Toshkent shahrini yana bir "oshig'i" – bu mashhur misrlik romannavis Jamol al-G'itoniydur. O'nlab romanlar muallifi Jamol al-G'itoni arab dunyosida Nobel mukofoti sovrindori Najib Mahfuzdan so'ng eng yirik yozuvchi hisoblanadi. U Misrda XX asr 70-yillaridan rivojlana boshlagan "yangi roman" yo'nalishi namoyandasidir. Yozuvchining romanlari ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilingan, shu jumladan o'zbek tiliga ham. Zamonaviy arab adabiyotini uning ijodisiz tasavvur qilish qiyin.

Jamol al-G'itoniyning mintaqamizga bo'lgan qiziqishi ijodining ilk pallasida boshlangan edi. Dastlabki hikoyalari ichida "Mo'g'ullar" nomli hikoyasi kitobxonlar diqqatini o'ziga tortdi. Unda XIII asrda O'rta Osiyoning mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi, Xorazmshohlarga qarashli O'tror shahri qamal qilinishi tasvirlangan. Ma'lumki, O'tror ahli o'z shaharini dushmandan jasurona himoya qilgan va shiddatli janglarda aksariyat aholi halok bo'lgan. Gullagan shaharni mo'g'ullar vayronaga aylantirganlar. Yozuvchi qamalda qolib, janglarda ishtirok etgan yosh talaba yigit Ismoil nomidan shaharning o'tmishi va qamal kunlari, uning dahshatlari to'g'risida bayon qiladi. Hikoyadagi to'qima obrazlarga haqiqiy hujjatlar, dalillar kirib uyg'unlashadi. Xonning farmonlari, o'rta asr shahrining muhiti, qamal tafsilotlari, shaharni mo'g'ullar tomonidan talon-taroj qilinishini jonli tasvirlari yozuvchining mintaqamiz tarixini yaxshi bilishidan va qo'lyozmalar bilan ishlaganidan dalolat beradi.

Jamol al-G'itoniyning romanlari ichida yozuvchining O'zbekistonga qilgan taassurotlari asosida yozilgan "Yuksak muhabbat va ishq nomasi" [10] nomli romani alohida o'rin egallaydi. Bu asar shu kunga qadar bir necha bor nashr yuzini ko'rdi va minglab nusxalari kitobxonlar orasida tezlikda tarqalib ulgurdi. Aynan, mana shu romanda yozuvchi o'rta asrlardagi mushtarak musulmon tamaddunining ma'naviy-madaniy merosiga murojaat etdi va o'sha davrda rivojlangan adabiy janrlar "ar-rasail al-ixvaniya" ("birodarlik nomalari") va "ar-rixla" ("safarnoma") dan foydalanib, o'zbek diyorining zamonaviy qiyofasini va madaniy merosini, tarixiy voqealarni shaxsiy ichki kechinmalar bilan uyg'unlashtirib, o'ziga xos ajoyib asar yaratdi. Albatta, asarning mazmuni alohida tadqiq etishga sazovordir. Biz esa bu maqolamizda asardagi o'zbek san'ati va shaharlariga bag'ishlangan sahifalargagina to'xtalib o'tamiz.

Asar qahramoni yaqindagina ruhiy inqirozga uchragan misrlik ziyoli, obidalar bo'yicha mutaxassis bo'lib, 1980-yillar oxirida Toshkentga Sharq me'morchiligiga bag'ishlangan anjumaniga ishtirokchi sifatida keladi. U O'zbekiston tarixini, qadimgi obidalarini, ma'naviy-madaniy merosini sirdan bo'lsa ham yaxshi biladi, ular to'g'risida ko'p o'qigan, ularni tadqiq etgan va o'zlashtirgandir. Lekin uning ko'rganlari bilganlaridan ham ziyoda bo'lib chiqadi, uning tushkunlik kayfiyatini va holatini butunlay o'zgartirib yuboradi. Do'stiga yozgan nomalarda uning barcha his-tuyg'ulari o'z in'ikosini topgan. Ularda Toshkent, Buxoro, Samarqand tasviriga yetarli o'rin ajratilgan. Yozuvchi qahramon nigohi orqali shaharlarning keng maydonlari, binolari, xiyobonlari, obidalarini diqqat bilan ko'zdan kechiradi va batafsil tasvirlaydi. Hatto Toshkentdagi "O'zbekiston" mehmonxonasi yonida joylashgan saylgoh daraxtlariga e'tibor berib, ularni o'rta asrlarning mashhur rassomi Behzodning miniatyuralaridagi daraxtlarga qiyoslaydi: "Bu daraxtlarni men shu diyor farzandlaridan bo'lgan ajoyib rassomlarning miniatyurasida ko'rganman. O'sha miniatyuralarni men soatlab o'rganar edim, shu zamin havosidan nafas olgan buyuklardan birining imzosiga uzoq tikilib turardim. Uning ismi Behzod edi" [10:470].

Do'stiga yozgan nomalarining birida Toshkentda eshitgan o'zbek milliy musiqasini ta'riflaydi, uning ohangdorligi, serjilvaligi va jozibasiga lol qoladi. Yozuvchi nazarida bu musiqada o'zbek xalqining orzu-umidlari va g'am-anduhlari mujassamlashtirilgan. O'zbek musiqasi haqidagi taassurotini yozuvchi asta - sekin bayon eta boshlaydi:

*"Ikki mahalliy yigit kirib keldi, birining qo'lida tanbur, ikkinchisining qo'lida g'ijjak bor edi"*.

Birdan bayonning ravon yo'nalishi musiqachilarning mahoratidan va ohang jozibasidan ta'sirlangan yozuvchining his-tuyg'ulari bilan portlab ketadi: *"Ular ikkita edi, birodar, faqat ikkita! Lekin biri torni cherta boshlaganda, ikkinchisi kamonchagini yurgazganda, ularning asboblaridan nolayu-fig'onlarga to'la shunday kuy taralardi-ki, men bunday kuy borligini tasavvur qilmaganman. Bu kuyga butun vujudim berilib ketdi! Unda o'tgan avlodlarning g'am-anduhlari, yong'inning chirsillashi, dushman bosqini, otlarning kishnashi, vayron bo'lgan uylar atrofidagi yig'i, firoq nidosi, minglab insonlarning g'urbati... Bu zaminda ko'p yo'llar bir-birini kesib o'tgan, ko'p xalqlar qadamlarining izi qolgan"*.

Jamol al-G'itoniyni maftun qilgan kuy balki "Shashmaqom" yoki "Chorgoh" yoki "Munojot" yoki "Cho'li Iroq" yoki "Segoh" yoki xalqimiz yaratgan boshqa ta'sirchan mumtoz kuylardan biri bo'lgandir. Qaysi biri bo'lsa ham Jamol al-G'itoni o'zbek san'atining haqiqiy muxlisiga aylanib o'z romani sahifasidan uning tavsifi uchun ko'p o'rin ajratadi, shu jumladan o'zbek raqsi ham uning e'tiboridan chetda qolmadi. Adib go'zal o'zbek raqqosalarining har bir harakatini diqqat bilan kuzatadi va ular raqsining hatti-harakatlariga sharh berib, ayrim imo-ishoralarini to'ldasidan ajralib qolgan qush yoki kiyik harakatlariga o'xshatsa, yana boshqa harakatini quvonchli xabar eshitib, suyunib ketgan go'zalning shodligigiga qiyos etadi.

Roman qahramoni Toshkentdan keyin Buxoroga boradi. Hikoyachi o'z do'stiga "davrlar siri bilan burkangan" va "yuksalishlar va tanzzullarni boshidan kechirgan" bu qadimgi shaharga ko'p vaqtlardan beri kelishni orzu qilganini yozadi. "*Shaharga kelmasimdan oldin undagi osori-atiqalar qurilishi tarixini juda yaxshi bilar edim, uning mashhur machitlari, bozorlari, gumbazlari, arklari, qal'alari loyihalarini o'rgangan edim. Mening tasavvurimda bu shaharda go'yo faqat salohiyatli insonlar to'plangandek*", - deb yozadi qahramon o'z do'stiga Buxorodan yuborgan maktubida.

Samarqand ham, Buxoro singari o'zining me'moriy yodgorliklari bilan qissa qahramoni diqqatini tortadi. "*Qayoqqa ko'z tashlasang, o'sha joyda sening nigohing binolarning peshtoqidagi nozik chiziqlar o'zaro o'ralashib, o'ziga xos ajib bir ko'rinish hosil qiladigan bezaklar va naqshlarga tushadi. Yaratuvchanlik muhri har bir narsada-qadimgi darvozalar, madrasalar, machitlar, mashhur kishilar dafn etilgan maqbaralarda yotibdi*". Bu shahar olamda eng mashhur jahongirlardan bo'lmish Temurning shahridir".

Hikoyachi ikki o'zbek shahri-Buxoro va Samarqandni bir-biriga qiyoslaydi. Samarqand dastlabki soatlaridayoq o'z go'zalligini ko'z-ko'z qiladi. Buxoro, arab yozuvchisining ta'riflashicha, dastlab tasavvur qilganga nisbatan sahifalari ko'pincha yashirin va chuqur ma'nolarga ega bo'lgan qadimgi qo'lyozmalarga o'xshaydi.

Qahramon o'z vataniga, Misrga, uyiga qaytganidan so'ng, yana xayolan o'zi borib kelgan joylarga qaytadi, xaritadan Buxoro, Samarqand, Toshkent shaharlarini qidiradi, topib belgilab qo'yadi va O'zbekistondan ruhan ajrab ketolmasligini his qiladi va natijada "Yuksak muhabbat va ishq nomasi" romani vujudga keladi.

Ushbu maqola muallifi Qohirada "Axbar al-Adab" haftanomasi bosh muharriri, yozuvchi Jamol al-G'itoni bilan gazeta tahririyati binosida uchrashganda adib O'zbekiston safari xotiralariga berilib ketadi, hatto o'zbek nonining ta'mini ham eslaydi. Shuningdek, Toshkentga borib u yerdagi arab tilidagi qo'lyozmalar ustida ishlab, Buyuk Ipak yo'li to'g'risida roman yozish niyati borligi to'g'risida gapirgan edi.

Yana bir atoqli arab adibi Abdurahmon al-Hamisiy respublikamizga juda ko'p hishayajonli satrlar bag'ishlagan va uni zavq bilan kuylagan. Ularning ichida Toshkentga bag'ishlangan lirik she'ri alohida ajralib turadi.

"*Naqadar go'zal sharqona hissiyot va chuqur samimiyat, umid va ishonch bor, naqadar ajoyib mayinlik va sadoqat bor bu kichkina xazina yanglig' asarda*"- deb yozgan edi bu she'r haqida akademik Erkin Vohidov [13:4].

Toshkentning chiroyiga sehrlangan shoir uni ta'riflash uchun o'ziga xos timsollar va o'xshatishlar axtarib o'z she'rini savollardan boshlaydi:

*Toshkent sharob to'la jonon kosami?*

*Mendagi xotira daftarimi yo?*

*Toshkent yashnab turgan bir guldastami?*

*Ko'kdagi quvgan saodat kaptarmi yo? [11:27].*

Nihoyat shoir juda chiroyli badiiy obraz topadi: Erta shahardagi Toshkent jamolini, ko'rkini al-Xamisiy quyoshga muloyim tabassum ila qo'l cho'zgan go'zal va munis Sharq qiziga o'xshatadi; shaharning bahor faslidagi mayin va nafis havosi esa uni ming yillik sharobdek xumor etadi:

*Yo'q! Toshkent- sharq qizi, Go'zal va munis*

*Menga allanechuk uning mehri bor  
Men undan iltifot kutaman va biz -  
Shukrlar bo'lsinki, uchrashdik takror.*

Toshkent obrazi uchun go'zal qiz timsolini tanlashda shoir an'anaga amal qilganligi ko'zga tashlanadi, chunki shahar arab tilida "madinatun" bo'lib, u muannas ya'ni ayollar jinsini ifodalaydi va al-Xamisiy mumtoz she'riyatdagi kabi o'zining Toshkentga bo'lgan sevgisini oshiq va ma'shuqa munosabatiga o'xshatadi.

Baxt-saodat onlari avjga chiqqanda she'r kompozitsiyasida burilish paydo bo'ladi: firoq mavzusi kirib keladi.

*Yo huv.....*

*Xayrlashish soati yetdi.*

*Men jo'nashim kerak Misrga qaytib*

*Meni o'rtar ekan muhabbat o'ti*

*Toshkentga so'zimni qolayin aytib.*

Shoir she'riga chiroyli xotima yasab muhabbatini baralla ovoz bilan izhor etadi:

*Men seni jonimdan sevaman, Toshkent*

*Tugal etmoq qiyin bu ishqni izhor*

*Ne qilay rashkdan qo'rqaman da men,*

*Axir oshiqlaring besanoq bisyor....*

Shoir muhabbat qo'ygan shaharidan uzoqlashganda ham uning yorqin siymosi qalbida o'z o'rmini egallab turadi. "Go'zal Toshkentga, – yozgan edi shoir uzoq arab diyorida-buyuk Navoiy xalqiga, ajoyib o'zbek diyoriga mening eng haroratli salomim, eng ezgu tilaklarim! Ular dilimda, orzularimda, fikru-xayolimdadir, uzoq-uzoqdagi juda yaqin va yorqin yulduzlar yanglig".

O'zbekiston mavzusi arab adiblaridan yana al-Qindilning "Samarqand ustidagi oy", G'uda as-Sahorning "Jaloliddin Manguberdi" romanlarida, Ahmad Romiy asarlarida, falastinlik shoir Muin Bsusining "Samarqandda bulbullar sayraydi", sudanlik shoir Abdulloh at-Toyyibning "Samarqandga yo'l" she'rlarida va boshqa adiblar ijodida o'z ifodasini topdi.

O'zbek-arab adabiy aloqalari borasidagi tarjimonlik faoliyatiga kelsak, u ayniqsa Osiyo va Afrika mamlakatlari yozuvchilari harakatidan keyin rivojlanib ketdi. O'zbek adiblarining qator asarlari arab tiliga tarjima qilindi, shu jumladan ular orasida Oybekning "Navoiy" romani, Sharof Rashidovning "Kashmir qo'shig'i" qissasi, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor hikoyalari, shoirlarimizning she'rlari ham bor. Sharof Rashidovning "Kashmir qo'shig'i" 1963-yilda Qohiralik professor Holid Muhammad Sulaymon va ushbu maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan [4]. Misrlik professor qissani shoirona uslubiga maftun bo'lib tarjimaga zavq bilan yondoshdi. Mazkur qissa qahramonlari-go'zal Nargiz, jasur Xorud va ularning do'stlari yovuz Bo'ron bilan to'qnashuvida milliy-ozodlik kurshining ramzini ko'rdi, chunki endigina mustaqillikka erishgan arab mamlakatlari uchun bu mavzu dolzarb edi.

Arab adabiyotidan bir qancha romanlar, xususan Jirji Zaydonning "Farg'ona kelini", "Amin va Ma'mun", "Abbasa Xorun ar-Roshidning singlisi", Nobel mukofoti sohibi Najib Mahfuzning "Ushalmagan orzular", "O'g'ri va itlar", "Oynalar", "Raqqosa Rodopis", Abdurahmon ash- Sharqoviyning "Er", Toha Husaynning "Kunlar", Jamol al-G'itoniyning "Zeyn al-Barakat", Jazoir yozuvchilari – Muhammad Dib "Jazoir-mening vatanim" va Tohir Vattorning "Zilzila", yamanlik yozuvchi Muhammad Abduvalining "Sana – ochiq shahar" kabi romanlari va boshqa asarlar o'zbek tiliga tarjima qilingan. Shu jumladan 1979-yilda atoqli o'zbek yozuvchisi va shoir Omon Muxtor hamda maqola muallifi hamkorlikda Abdurhamon al-Hamisiyning "Ko'ngil dardi" she'riy to'plamini o'zbek tilida nashr etishdi [11]. Omon Muxtor mazkur she'riy to'plamning badiiy tarjimasini amalga oshirdi, maqola muallifi esa to'plovchi va arabchadan so'zma-o'z tarjimoni sifatida ishtirok etdi. Natijada o'zbek kitobxonlari atoqli arab shoirlarining vijdon ovozi nolalari, g'am-anduhlari, vatan sevgisi, qalb izhorlariga hamnafas bo'ldilar.

Mustaqil diyorumiz yangi ijtimoiy-madaniy islohotlar davriga kirib kelgan hozirgi bir pallada, tarjimonlik sohasida bizni yangi talablar va vazifalar kutmoqda. Bu vazifalardan eng muhimi-o'zbek adabiyotini boshqa tillarga tarjima qilib, butunjahon miqyosida targ'ib qilish masalasidir. O'zbek adabiyoti hozirgi kunda murakkab, ammo samarali jarayondan o'tib bormoqda. Unda boy an'analar bilan bir qatorda novator ijodkorlik o'zini namoyon qilmoqda, turli janrda va rang-barang uslublarda asarlar yaratilmoqda, jahon adabiyoti jarayoniga salmoqli o'zan bo'lib kirmoqda.

Tarjima ishlarini jonlantirish uchun maxsus guruhlar tashkil qilinib, ularda o'zbek tarjimonlari turli tillar sohiblari bilan hamkorlikda faoliyat olib borsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi. Umuman adabiy aloqalar kengayishida tarjimonlik faoliyati katta ahamiyat kasb etadi, chunki adabiyot xalqlarni yaqinlashtiradi, ma'naviy olamini kengaytiradi, yuksaltiradi.